SHARQONA OILA INSTITUTINI RIVOJLANTIRISHDA BURHONUDDIN AL-MARG'INONIY TA'LIMOTINING O'RNI "AL-HIDOYA" MISOLIDA

Boqijonov Muhammadamin Jo‘rabek o‘g‘li
1-kurs (magister) Falsafa (Sharq falsafasi va madanyati)
ta’lim yo’nalishi talabasi
Telefon: +998904091519
Ilmiy rahbar: **Nigora Saydalieva**
Sharq falsafasi va germeneftika kafedrasi,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Burhonuddin al-Marg‘inoniyning tug‘ilib o‘sgan shaharlari, yoshlikdagi ustozlari, ilmiy faoliyatni boshlashdagi ilk qadamlari va u kishini dunyoga tanilishlariga sababchi bo‘lgan mashhur asarlari “al-Hidoya” haqida so‘z yuritiladi. Al-Hidoya asarining nikoh bobida keltirilgan oila mas’uliyati, er-xotin huquq va majburiyatlari, axloqiy tarbiya hamda jamiyat barqarorligida oilaning tutgan o‘rni masalalari yoritiladi.*

Tayanch tushuncha va iboralar: *Burhonuddin al-Marg‘inoniy, “al-Hidoya”, islom huquqi, fuzuliy nikoh, mahr masalalari, valiylar, oila instituti, ma’naviy yetuklik, er-xotin huquqlari, jamiyat barqarorligi, qadriyatlar.*

KIRISH (INTRODUCTION)

O'zbekiston diyori ming yildan ortiq vaqt davomida Islom dunyosiga yetuk allomalar yetkazib bergan ma’rifat o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Bu diyordagi diniy va dunyoviy ilmlarning shakllanishi hamda rivojlanishi Sharq sivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu hudud qadimdan ilm-fan, ma’rifat va madaniyat markazi sifatida tanilib, islom sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ayniqsa, IX–XV asrlar oralig‘ida

Mavarounnahrda ilmiy muhitning yuksak darajada shakllangani, diniy fanlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot va boshqa dunyoviy ilmlarning ham izchil rivojlangani tarixiy manbalarda yaqqol aks etadi. Bu jarayon hududda ilmiy tafakkur va madaniy hayotning uyg‘unlashuviga zamin yaratgan. Ilmiy maktablarning o‘ziga xos jihati shundaki, bu yerda diniy va dunyoviy ilmlar o‘rtasida qarama-qarshilik emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi va boyituvchi munosabat shakllangan. Qur’on va hadis ilmlari, fiqh, kalom, tasavvuf kabi diniy fanlar chuqur rivoj topgan bo‘lsa, shu bilan birga, aqliy va tajribaviy bilimlarga asoslangan fanlar ham yuksak darajaga ko‘tarilgan. Natijada Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino Burhonuddin al-Marg‘inoniy kabi ko‘plab qomusiy olimlar yetishib chiqqan bo‘lib, ularning ilmiy merosi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavarounnahr ilmiy-ma’rifiy muhitining yuksalish davrida yetishib chiqqan allomalardan biri Burhonuddin al-Marg‘inoniy bo‘lib, u islom huquqi va diniy ilmlar rivojida muhim o‘rin egallaydi. XII asrda yashab ijod qilgan ushbu buyuk mutafakkir o‘zining chuqur ilmiy salohiyati, mustahkam mantiqiy tafakkuri va fiqhiy masalalarga tizimli yondashuvi bilan hanafiy mazhabi doirasida yuksak maqomga erishgan. Al-Marg‘inoniy faoliyati Mavarounnahrda diniy ilmlarning ilmiy maktab sifatida shakllanishi va mustahkamlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Burhonuddin al-Marg‘inoniyning ilmga qo‘shgan hissasi, avvalo, fiqh ilmini nazariy va amaliy jihatdan mukammal tizimga solgani bilan namoyon bo‘ladi. Uning eng mashhur asari sanalgan “al-Hidoya” hanafiy fiqhining asosiy manbalaridan biri sifatida asrlar davomida islom olamida huquqiy qo‘llanma vazifasini bajargan. Mazkur asar nafaqat diniy-huquqiy masalalarni bayon qilish, balki mantiqiy asoslash, dalillash va qiyosiy tahlil usullarini

qo‘llash bilan ajralib turadi. Bu holat al-Marg‘inoniy ilmiy merosida diniy va aqliy yondashuvlarning uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

Al-Marg‘inoniyning tug‘ilgan yillari borasi islomshunoslik bo‘yicha falsafa doktori S.Primovning “al-Hidoya” kitobiga yozgan sharhida: “Burhoniddin al-Marg‘inoniyning to‘liq nasabi Burhonid-din Abul Hasan Aliy ibn Abu Bakr ibn Abduljalil ibn Xalil ibn Abu Bakr Siddiqiydir. Allomaning nasabi ulug‘ sahoba Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuga tutashganligi uchun “Siddiqiy” nisbasi bilan tanilgan. Bundan tashqari, alloma tug‘ilib o‘sgan viloyati, shahri va qishlog‘iga nisbat berilgan Farg‘oniy, Marg‘inoniy va Roshidoniy nisbalari ham tanilgan. Al-Marg‘inoniy hijriy 511-yil rajab oyining sakkizinchi kuni, milodiy 1117-yil 4-noyabr dushanba kuni asr namozidan keyin tug‘ilgan. U zot uzoq umr ko‘rib, hijriy 593-yil 14-zulhijja kuni, milodiy 1197-yil 27-oktyabr seshanba kuni tunda vafot etgan. Imom Marg‘inoniy Samarqand shahrida Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Chokardiza qabristoni “Turbatul Muhammadiyn” deb ham nomlanadi. Chunki Imom Qurashiy “Al-Javohir al-muziya” asarining muqaddimasida zikr qilishicha, bu qabristonga kitoblar yozgan, fatvo bergan va ko‘plab shogirdlar tarbiyalab chiqargan Muhammad ibn Muhammad ismli to‘rt yuzta olim dafn qilingan. Al-Marg‘inoniy fazli va ilmiga ustozlari, tengqurlari, zamonasining zabardast ulamolari va keyingi davr olimlari guvohlik berishgan. Hatto Burhonuddin Marg‘inoniyning o‘zi bu borada shunday degan: “Men o‘z sheriklarimdan ilm olishda o‘zib ketdim. Chunki men ilm hosil qilishda biror-bir sustkashlikka yo‘l qo‘ymadim”.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy taxminan, 1165 yilda Bag‘dodga kelganida Quduriyning «Muxtasarul quduriy» asarini tasavvuridagi fiqhga oid yozilgan asarlar ichida eng munosib manba ekani va u asar o‘ziga juda manzur bo‘lganini ta’kidlaydi. Natijada u dastlab, Muhammad Shayboniyning «Al-Jamius-sag‘ir» va Quduriyning «Muxtasarul quduriy» asarlari asosida «Bidayatul-mubtadi» asarini yozadi. Muallif keyinchalik ushbu asariga

«Kifoyatul muntahi» nomli sharh yozdi. Lekin ushbu yozgan sharhini hajm jihatidan katta bo‘lib ketgani sababidan o‘qilmay qolishidan qo‘rqdi. Shundan so‘ng Burhonuddin al-Marg‘inoniy «Bidayatul-mubtadi» asariga avvalgi «Kifoyatul muntahi» sharhiga nisbatan qisqa, zamondosh faqihlar tomonidan ishlab chiqilgan va barcha sohalarda hanafiy fiqhini o‘zida mujassam qilgan asari “al-Hidoya”ni yozishga kirishdi. Muallif ushbu “al-Hidoya” asarini o‘n uch yil davomida, ro‘zador holatida ihlos va ilmga muhabbat bilan yozdi. U kishini ushbu ihlosi keyinchalik “alHidoya”ni to hozirgi kunimizga qadar ilm ahlining e’tiboridan tushmagan mo‘tabar manba o‘laroq yetib kelishiga sabab bo‘ldi. Burhonuddin Marg‘inoniy ushbu “al-Hidoya” asarini hijriy 573 (milodiy 1177) yil Zulqa’da oyining 4-kuni yozib tugatgan.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy o‘z ustozlari haqida yozgan “Kitobul mashiyxa” nomli asarida ustozlari Aliy ibn Muhammad Isbijobiyning (vaf. 535/1141-y.) tarjimai holida quyidagilarni zikr qiladi: “Uzoq muddat ustozim Isbijobiyning huzuriga ilm olish uchun qatnadim va uning darsidan juda ko‘p foydalar hosil qildim hamda u zotning huzurida munozara majlislarida ishtirok etib, katta nasibani qo‘lga kiritdim. Mazkur ustozim rahimahulloh menga fatvo berishga ruxsat berib, bu borada katta ijozat maktubi yozib berdi. O‘sha vaqtda mening yoshim yigirma atrofida edi”.

ASOSIY QISM

Burhoniddin Marg‘inoniy XII asrning buyuk fiqh olimi sifatida ahli sunna val jamoa yo‘nalishida hanafiy mazhabining yirik vakili hisoblanadi. U yozgan asarlarning barchasi, ayniqsa “al-Hidoya” muallifning o‘ziga xos ilmiy uslubidan dalolat beradi. Turk ensiklopedist olimi Shamsiddin Somiyning mashhur asari “Qomusul-a’lom”da ta’kidlanishicha, u zot 60000 dan 80000 gacha huquqiy muammolarni hal qilib bergan ekan. Burhoniddin al-Marg‘inoniy hanafiy mazhabining keng doirasida son–sanoqsiz huquqiy masalalarni hal qilish yo‘llarini topishga muvaffaq bo‘ldi. U to‘g‘ridan to‘g‘ri mustaqil suratda istinbot(shar’iy dalillar asosida fatvo berish) qilish vakolatiga

ega bo‘lmasa ham, o‘z ilmiy huquqiy asarlarini ajratishga qiyosdan (qiyosi jaliydan), ayniqsa, qiyosning ikkinchi turi bo‘lmish – “qiyos xafiy” yoki “istehson” dan keng ko‘lamda foydalandi. Chunki, Abu Hanifa roziyallohu anhuning o‘zi ham eng muhim bo‘lgan yuzlab huquqiy muammolarni ushbu qoida asosida yechib berganlar. “Al-Hidoya” kitobini yozishda o‘ziga xos uslub bilan yondashib, boshqa kitoblardan ajralib turadigan jihatlarini bayon qilib berdi. Uning har bir iborasi nihoyatda qisqa va muxtasar, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jumlalarning har biri bir umumiy qoida shaklida beriladi. Uning iboralari mo‘jaz, ya’ni qisqa va sermazmun, so‘zlari tarkibi puxta, nuqsonsiz bo‘lib, sunniylikdan uzoq. U ko‘p zarurat sezmasa, sinonim so‘zlaridan foydalanmaydi. Xashf va zavoidni (kerak bo‘lmagan ortiqcha so‘zlarni) ishlatmaydi. Uning yozish uslubi “sahli mutanim” (oson, sodda).

Al-Hidoya asarida ko‘plab masalalar yoritilgan bo‘lib ulardan hozirgi vaqtda barcha bilishi zarur bo‘lgan nikoh masalasi ham ko‘tariladi. Ma’lumki, oila har bir jamiyatning boshlang‘ich asosi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun ham qadimdan har bir jamiyat oila masalasiga katta e’tibor berib, oilalarning mustahkam va baxtiyor bo‘lishi uchun imkoni boricha barcha chora va tadbirlarni ko‘rib kelgan. Bu borasida hanafiy mazhabining eng katta ulamolaridan biri bo‘lgan Ibn Obidin(rohimahulloh) shunday deydi: “Odam alayhissalomdan to qiyomatgacha ibodat qilib belgilangan, hamda jannatda ham davom etadigan amal ikkita bo‘lib, birinchisi iymon, ikkinchisi nikohdir”.

O‘zbekiston Respublikasining (01.09.1998-yildagi) Oila kodeksining 1-moddasida “Oila to‘g‘risidagi qonunchilik hamda ularning vazifalari Oila to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan hamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat. Oila to‘g‘risidagi

qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratdir”.

Bu huquqiy asoslar nikohning davlat tomonidan himoya qilinishini va uning qonuniy asoslarga tayanishini ko‘rsatadi. Nikoh – shaxsiy hayotning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat diniy, balki huquqiy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Islom nuqtai nazaridan nikoh insonni gunohlardan saqlaydi, naslni davom ettiradi va mehr-muhabbatning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Hadislarda nikoh sunnat ekani ta’kidlangan, ulamolar esa uning fazilatlarini ulug‘lashgan. Shuningdek, konstitutsiya va qonunlar nikohni tartibga solish orqali uni yanada mustahkam qiladi. Demak, nikoh – nafaqat er-xotin o‘rtasidagi bog‘liqlik, balki jamiyat rivoji va barqarorligi uchun muhim asosdir. Buyuk islom ulamolari nikoh masalasiga katta e’tibor berib, uni muqadas rishta deb ta’riflashgan. Bu borada Abu Homid G‘azoliy shunday degan: “Nikoh inson hayotidagi eng ulug‘ ne’matlardan biridir. U orqali inson qalbi osoyishtalik topadi, oilaviy hayot barqaror bo‘ladi va nasl davom etadi”. Shuningdek, “Halol rizq topish va farzand tarbiyalash ibodatdir. Nikoh shu yo‘lda eng muhim vositalardan biridir”. Shofe’iy “Agar odam faqatgina Allohga itoat qilish va gunohlardan saqlanish uchun nikoh qilsa ham, u mukofotga erishadi”.

Barcha insonlar nasl-nasabi, irqi, qaysi millatga mansubligidan qat’iy nazar, teng haq-huquqqa egaligi, hammalari bir ota-onadan tarqalganliklari, asl tiynatlari tuproq bo‘lib, hayotda qul yoki cho‘ri bo‘lib qolishgan bo‘lsalar ham, jamiyatda egalik (xo‘jalik) qilayotganlar zimmasida haq-huquqlari borligini Islom fiqhi keng miqyosda nazariy bir ilm sifatida insoniyatga yetkazib berdi. Garchi bugungi kunda quldorlik tizimi tarix sahifalarida qolib ketgan bo‘lsa

ham, qo‘lingizdagi ushbu “al-Hidoya” kitobi orqali Islom dinida qullarga oid qanday haq-huquqlar ishlab chiqilgani bilan tarixiy ma’lumot sifatida tanishib chiqasiz. “Qul ozod qilish” bo‘limida qul ozod qilishga oid shar’iy masalalar taloqqa doir masalalardan keyin bayon etilib, ushbu bo‘limda asosan qul va cho‘rilarni qay tartibda ozod etish masalalari va ularning haq-huquqlari haqida batafsil va atroflicha ma’lumotlar berilgan.

Burhoniddin al-Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asari to‘qqiz asrdan buyon hanafiy mazhabi bo‘yicha eng muhim va mo‘tabar qo‘llanma sifatida barcha musulmon mamlakatlari madrasalari va islom oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilmoqda. Uning matni va qisqartmalari ustidan mashhur faqihlar tomonidan 60 dan ortiq sharh va hoshiya yozilgan hamda “al-Hidoya” hanafiy mazhabining tarqalishi yo‘lida ta’sirchan omil sifatida xizmat qilib kelgan. “Burhoniddin Marg‘inoniy “al-Hidoya” asarini yozish bilan hanafiy fiqhi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shdi. Bu kitobning yozilishi Burhoniddin Marg‘inoniy nafaqat fiqhni yaxshi biladigan, balki uning keng ilm sohalarini qamrab olgan qomusiy olim ekanidan darakdir. Chunki u mazkur asarida musulmon olamida mashhur olimlar, xususan, hanafiy va mintaqada faoliyat yuritgan faqihlar chiqargan fatvolarni qiyosiy o‘rganib, ulardan haqiqatga yaqinroq va amalda ko‘proq qo‘llanadiganlarini ajratib ko‘rsatib bergan”.

XULOSA

Biz yoshlarni hozirgi kundagi asosiy vazifamiz ota-bobolarimiz qoldirib ketgan bebaho meroslarni ko‘z qorachig‘imizdek asrab-avaylashimiz darkor. Al-Marg‘inoniyning “Al-hidoya” asari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy manbasi sifatida qaraladi. Asarda keltirilgan fiqhiy hukmlar oilani jamiyatning barqaror ijtimoiy instituti sifatida mustahkamlashga, shaxsda mas’uliyat va axloqiy yetuklikni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu qarashlar bugungi zamonaviy ijtimoiy muhitda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. “Al-Hidoya”dagi oilaga oid konseptual yondashuvlarni ilmiy

tahlil qilish, uni zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan qiyosiy o‘rganish yoshlar siyosati va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan o‘rganishlar natijasida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi: Birinchidan, al-Marg‘inoniy oila institutini jamiyatning axloqiy va huquqiy asosi sifatida talqin etib, nikoh munosabatlarida nafaqat huquqiy majburiyatlarni, balki er-xotin o‘rtasidagi ma’naviy uyg‘unlik va o‘zaro hurmatning falsafiy mohiyatini ochib bergan. Ikkinchidan, “Al-hidoya”da ilgari surilgan kufv (munosiblik) va mas’uliyat taqsimoti tamoyillari bugungi kun yoshlari uchun oilaviy nizolarning oldini olishda muhim ijtimoiy profilaktik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Uchinchidan, asardagi oila barqarorligiga oid qarashlar zamonaviy ijtimoiy pedagogika va oila psixologiyasi bilan hamohang bo‘lib, globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab qolishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Marg‘inoniyning merosi yosh avlodni oilaga tayyorlashning o‘ziga xos “ma’naviy filtri” bo‘lib, undan zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Hikmatulloh Abiyev, Soatmurod Primov, Shavkatjon Xalilov. Hidoya sharhi kitobi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2023. – B. 110-111.

2.A’zamjon Qambarov, Ilhomjon Bekmirzayev. Hidoya sharhi bidoyatil mubtadi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020. – B. 6.

3. Muhammad Amin ibn Umar ibn Obidin. Radd al-Muhtar ala al-Durr al-Muhtar. – Bayrut: Dar al-kutub alamiya, 2003. – J. III. – S. 203.

4.Hamidulla Aminov, Soatmurod Primov. Hanafiy fiqhiy tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Sahifa, 2023 – B. 23.

5. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo Ulumiddin. – Bayrut: Dar al-Shamiya, 1993. – S. 406.

6. Nodirjon Abdulahatov. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – Toshkent., 2023. 11-aprel. 69-son

7. Said Bektosh, «Tahqiq al-Hidoya», Madina al-Munvvara: Dor as-siroj, 2019. J.I.-B.7.

8. http://lex.uz//uz/docs/-104720 O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi